

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Beruniy tumani 49-umumiy
o'rta ta'lim maktabi
I-toifali informatika fani
o'qituvchisi Muborak Nuriyevaning
5-sinf “ Paintda amaliy vazifalar
bajarish” mavzusi bo'yicha dars
ishlanmasi.

Fan: Informatika.

Sinf: 5-sinf

Mavzu: Paintda amaliy vazifalar bajarish.

Vaqt: 45 daqiqa

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad:

Paint dasturi bo'yicha olgan ko'nikmalarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad:

O'quvchilarga estetik tarbiya berish, ona Vatanga muhabbat, o'lkamiz tabiatini sevishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

O'quvchilarning bir-biriga do'stlik hamda guruh uchun mas'ullik hissini rivojlantirish.

Dars jihoji: Slayd, rangli kesma qo'g'ozlar, rangli qalam, o'chirg'ich.

Dars tipi: Amaliy dars

Dars usuli: interfaol

Darsning borishi:

1. Tashkiliy ishlar-5-daqiqa
2. Aqliy hujum -15 daqiqa
3. Yangi mavzuga zamin yaratish -5 daqiqa
4. Amaliy topshiriqlar bajarish-15 daqiqa
5. O'quvchilarni baholash- 3 daqiqa
6. Uyga vazifa -2 daqiqa

1. Tashkiliy ishlar.

O'quvchilar tanlagan ranglariga qarab guruhlariga ajraladi va o'z joylarini egallaydilar. (qizil, yashil, ko'k)

Topishmoq.

Qip-qizil, zo'r savzi, yam-yashil hovlida ko'karib bo'ldi.

O'quvchilardan topishmoqning javobi so'raladi.

O'qituvchi: Agar javob bo'lmasa topishmoqdagi har bir so'zning birinchi harfiga e'tibor bering va undan boshlanadigan ranglar nomi aytsangiz nima hosil bo'ladi- **KAMALAK**. (qizil, zangori, sariq, yashil, havo rang, ko'k binafsha. Javob "Kamalak".)

-Paintda rasm chizish da aynan nima zarur?

Shunday qilib o'quvchilar rasm chizishga uchun ruhan tayyorlanadi.

2. Aqliy hujum.

Guruhlar bilan ishlashda musobaqa usulidan foydalaniladi. O'qituvchi o'quvchilarga bu jarayonining qanday tashkil etilishini tushuntiradi.

O'qituvchi guruhlar uchun tartib raqamlari yozilgan jadval beradi. Unda guruhdagi qatnashayotgan barcha o'quvchining tartib raqami yozilgan bolish kerak. O'tilgan mavzular bo'yicha guruhlariga navbat bilan savol beriladi.

O'quvchilar har bir ishni amaliy ravishda kompyuterda bajarib ko'rsatishi va to'g'ri javob egasi, mos rangli qog'ozni o'zining tartib raqami yozilgan joyga elimlashi kerak.

Agar o'quvchi no'to'g'ri javob bersa, boshqa guruh a'zosi yordam beradi, lekin javob bera olmagan o'quvchi tartib raqami o'rniga yordam bergan o'quvchining rangli qog'ozi elimlanadi.

Musobaqa shu zaylda davom ettiriladi va qaysi guruh o'z kuchi bilan, qaysi guruh guruhlarining yordamiga tayangani o'qituvchi izohlaydi. Natijada ular o'z «Палитра»sini yaratadilar. Jadvallar bir hil rangdagi rangli qog'ozli shakllar bilan to'ldirilsa, demak guruh "Barakallo" , agar yordam berilgan bo'lsa "Yaxshi" deb rahbatlantirildi.

Savollar:

1. Paint dasturi vazifasi nimadan iborat?
2. Paintda chizilgan har qanday shakl yoki rasm qanday ko'rinishda bo'ladi?
3. Paint dasturini ishga tushirish va ishni tugallash usullarini tushintiring.
4. Dasturning asosiy qismlarini aytib bering.
5. Paint dasturi menyularini sanab bering.
6. Paint uskunalarini tanishtiring.
7. Paintda tayyor rasmdan qanday nusxa olinadi?
8. Paintda o'gdirish va burish qanday bajariladi?
9. Paint dasturida rasmga matn joylashirish mumkinmi?
10. Kiritilayotgan matn shriftini o'zgartirishni amalda ko'rsating.
11. Ramni qanday uskuna yordamida kattalashtirib ko'rish mumkim?
12. Tayyor rasmlarni qanday xotirada saqlash mumkin?
13. Rasmni chop etish uchun nima qilish kerak?
14. Fayl menyusida qanday amallar bajariladi?

15. Ekranni rasmdan tozalash uchun qaysi amal bajariladi?

3. Yangi mavzuga zamin hozirlash uchun slaydlar taqdimoti beriladi.

4 Paintda amaliy vazifalar bajarish

1. Shakllar chizish.

2. Rasmlar chizish.

3 Tabiat manzalarini chizish.

O'quvchilarga darslikda berilgan mashqlarni tartib asosida belgilab, Paint dasturida chizish vazifasi beriladi. O'qituvchi o'quvchilar ning ishini kuzatadi. Har bir mashqda foydalangan uskunalar so'rab boriladi. Ishlar nihoyasiga etgach o'quvchilar o'z joyini egallaydilar.

1-topshiriq

Har bir guruhga turli rangdagi olma rasmini chizish topshiriladi. (ularga bittadan o'chig'ich va bittadan rangli qalam beriladi.) Qaysi guruhda ko'proq ish oxiriga etkazilganiga qarab o'quvchilar rag'batlantiriladi.

-Siz uchun qay bir xolat maroqli bo'ldi? Nima uchun?

O'quvchilarning fikr-mulohazalari tinglanadi.

O'qituvchi tomonidan ijodiy ishlar tekshiriladi va baholanadi. Paint dasturi uskunalaridan to'g'ri foydalangan guruh o'quvchilari alohida **“Ofarin”** deb rag'batlantiriladi.

(Guruhning eng faol ishtirokchisiga haqiqiy olma berilishi ham mumkin.)

Uyga vazifa:

“Maftunkor ona tabiat” mavzusiga rasm chizish.

